

SADRIDDIN AYNIIY TA'LIM–TARBIYA KONSEPSIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI

Alimova Shamsiya Raximovna

Buxoro xalqaro universiteti dotsenti,

Muhammadiyeva Gulnoza Nodir qizi

1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Sadrididdin Ayniyning ta'lim–tarbiya haqidagi qarashlarini falsafiy-metodologik nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Tadqiqotda ma'rifatparvarlik an'analari, jadidchilik harakati, Sharq falsafasining ta'lim va axloq haqidagi qarashlari, shuningdek, zamonaviy pedagogik paradigmalarning Ayniyning pedagogik merosi bilan uyg'unlashuv imkoniyatlari yoritilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Ayniyning tarbiyaviy konsepsiyasi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim, axloqiy tarbiya va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish kabi zamonaviy pedagogik tamoyillar bilan metodologik jihatdan mos keladi.

Kalit so'zlar: *Sadrididdin Ayniy, pedagogika, ta'lim falsafasi, tarbiya, metodologiya, ma'rifatparvarlik, jadidchilik, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, axloqiy tarbiya.*

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SADRIDDIN AYNII'S EDUCATIONAL CONCEPT

Alimova Shamsiya Raximovna

Associate Professor of Bukhara International University,

Muhammadiyeva Gulnoza Nodir qizi

1st year master's student

ABSTRACT

This article analyzes Sadrididdin Aynii's views on education and upbringing from a philosophical and methodological point of view. The study covers the traditions of the Enlightenment, the Jadid movement, the views of Eastern philosophy on education and morality, as well as the possibilities of harmonizing modern pedagogical paradigms with Aynii's pedagogical heritage. The results of the analysis show that Aynii's educational concept is methodologically consistent with modern

pedagogical principles such as a person-oriented approach, competency-based education, moral education, and the formation of a civic position.

Keywords: *Sadriddin Ayniy, pedagogy, philosophy of education, upbringing, methodology, enlightenment, Jadidism, person-centered education, moral education.*

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ КОНЦЕПЦИИ САДРИДДИНА АЙНИ

Алимова Шамсия Рахимовна

Доцент кафедры педагогики Бухарского международного университета,

Мухаммадиева Гулноза Нодир кизи

студент 1-го курса магистратуры

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются взгляды Садриддина Айни на образование и воспитание с философско-методологической точки зрения. В исследовании рассматриваются традиции Просвещения, движение джадидов, взгляды восточной философии на образование и нравственность, а также возможности гармонизации современных педагогических парадигм с педагогическим наследием Айни. Результаты анализа показывают, что образовательная концепция Айни методологически соответствует современным педагогическим принципам, таким как личностно-ориентированный подход, компетентностное образование, нравственное воспитание и формирование гражданской позиции.

Ключевые слова: *Садриддин Айний, педагогика, философия образования, воспитание, методология, просвещение, джадидизм, личностно-ориентированное образование, нравственное воспитание.*

KIRISH

Sadriddin Ayniy XX asr Markaziy Osiyo ma'rifatparvarlik harakatining eng yirik vakillaridan biri sifatida o'zining adabiy, ilmiy va pedagogik qarashlari bilan mintaqa ta'lim tizimini yangilashda muhim o'rin egalladi. Uning pedagogik fikrlarida ta'limning maqsadi, tarbiyaning mohiyati, ustoz shaxsi, yoshlarni ma'naviy-axloqiy kamolga yetkazish, jamiyatning taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq ravishda talqin etiladi. Ayniy asarlarida ilgari surilgan fikrlar bugungi kunda ham ta'limning falsafiy-metodologik asoslarini qayta ko'rib chiqishda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur maqola Ayniyning ta'lim-tarbiya konsepsiyasini falsafa, pedagogika metodologiyasi, madaniy taraqqiyot nazariyalari, shaxs kamoloti va kompetensiyaviy yondashuv asosida tahlil etishni maqsad qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sadriddin Ayniyning ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlarning metodologik ildizlari, pedagogik tafakkuri Sharq mutafakkirlarining tarbiya haqidagi qarashlari bilan asoslanadi. Ayniqsa: Forobiy (axloqiy kamolot va baxt konsepsiyasi), Ibn Sino (aql, bilim, tarbiya), Ahmad Donish (maktab islohoti, ma'rifat), Behbudiy va Fitrat (jadidchilik pedagogikasi ta'siri seziladi).

Ayniy uchun ta'limning asosiy maqsadi — inson ma'naviy kamolotiga erishish, uni “ma'rifatli va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs” sifatida shakllantirishdir. Bu fikr Sharq falsafasining markaziy tamoyillaridan biri — tafakkur va axloqning uyg'unligi g'oyasiga tayanadi. Ayniy jadid maktablarining faol tarafdori bo'lib, ta'limni zamonaviylashtirish, dunyoviy bilimlarni joriy etish, savodsizlikni tugatish, maktab va o'quv dasturni isloh qilish zarurligini asoslab berdi.

Bu metodologik yondashuv XX asr boshlaridagi ma'rifiy modernizatsiya falsafasi bilan uyg'unlashadi. Jadidchilik pedagogikasi Ayniyning ta'lim haqidagi qarashlarida uyg'un tarzda davom ettiriladi.

Ayniy asarlarida o'quvchi shaxsining qobiliyati, qiziqishi, ijtimoiy roli, ma'naviy o'sishi birlamchi o'ringa qo'yiladi. Ustoz vazifasi — o'quvchini majburlash emas, unga yo'l ko'rsatish, mustaqil fikrga yo'naltirishdir.

Bu tamoyillar bugungi zamonaviy pedagogikada *student-centered learning*, *constructivism*, *individual learning trajectory* kabi tushunchalar bilan uyg'un keladi. Ayniyning fikricha, ta'lim jamiyat madaniyati, fuqarolik ongini shakllantirish, millat taraqqiyotini ta'minlash uchun xizmat qilishi lozim. Ta'limning ijtimoiy vazifalari uni sotsial pedagogika, fuqarolik tarbiyasi va ijtimoiy kompetensiyalar nazariyalari bilan bog'laydi.

Ayniyning nazarida ta'limning eng asosiy komponenti — axloqiy kamolot. U halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, adolat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni tarbiyaning markaziy o'rni sifatida ko'rsatadi.

Bu yondashuv zamonaviy kompetensiyaviy ta'limda soft skills, etik kompetensiya, *emotional intelligence*, *social responsibility* tushunchalariga mos keladi.

Ayniyning fikricha, ustoz – ma’naviy yetuk, ilmiy, jamiyat oldida mas’ul, o’quvchi uchun namuna bo’lishi kerak. Bu zamonaviy pedagogikadagi *teacher professionalism, pedagogik liderlik va pedagogik kompetensiyalar* modeli bilan uyg’unlashadi.

Ayniy tarbiyaviy qarashlarida axloqiy kompetensiya, sotsial kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, madaniy savodxonlik, fuqarolik kompetensiyasilar yaqqol ko’rinadi. Bu esa uning ta’lim konsepsiyasi zamonaviy OTM va Maktab ta’lim standartlari (Milliy o’quv dasturlari) bilan mos tushishini ko’rsatadi.

Garchi Ayniy o’tgan asr vakili bo’lsa-da, uning ta’lim metodikasida faol o’qitish (muammoli o’qitish), o’quvchi faolligini oshirish, mustaqil fikrlashga yo’naltirish, darsliklarni soddalashtirish kabi yondashuvlar bugungi *interactive learning, problem-based learning va project-based learning* metodlariga yaqin.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko’ra, Sadridin Ayniyning ta’lim–tarbiya konsepsiyasi o’zining chuqur falsafiy-ma’naviy mazmuni bilan o’zbek pedagogik tafakkurining muhim bo’g’ini bo’lib xizmat qiladi. Ayniy qarashlari shaxsga yo’naltirilgan ta’lim, axloqiy tarbiya, fuqarolik kompetensiyalari, ustoz shaxsining pedagogik rolini yuksaltirish, ta’limning ijtimoiy vazifalarini belgilash bo’yicha zamonaviy pedagogika paradigmatlari bilan uyg’unlashadi.

Ayniyning ta’lim konsepsiyasi bugungi ta’lim tizimida, ayniqsa ma’naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik liderlik va kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish jarayonida muhim metodologik asos bo’lib xizmat qilishi mumkin.

REFERENCES

1. Ayni S. Esdaliklar. – Dushanbe: Irfon, 1970.
2. Ayni S. Maktablar islohoti haqida. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G’.G’ulom nomidagi Nashriyot, 1960.
3. Donish A. Navodir ul-vaqoe. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
4. Karimov B. O’zbek pedagogik tafakkuri tarixi. – Toshkent: Fan, 2018.
5. Jalolov J. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Innovatsiya Ziyo, 2020.
6. UNESCO. Competency-Based Education: A Framework for 21st Century Skills. Paris, 2018.
7. Savater F. Ética para Amador. Madrid: Ariel, 2014.
8. Xodjayev Sh. Jadid maktablari va pedagogik islohotlar tarixi. – Toshkent: O’qituvchi, 2019.